



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Uchinchi jild. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti’, 2000.

KOMMUNA ISMOILOVA - YURAKLARDA KURTAK OCHGAN SAN’AT

Lobar MO‘MINOVA,

O‘zDSMI “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasida o‘qituvchisi.

***Annotatsiya.** O‘zbek an‘anaviy xonandalik san‘ati ko‘p asrlik tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan holda, zamonlar osha sayqal topib kelayotgan o‘lmas ma‘naviy merosdir. Bugungi kunda noyob iste‘dodi, betakror ovozi, ustozlarga bo‘lgan ixlosi va iqtidori bilan munosib hissa qo‘shgan, sohir ovoz sohibasi, hayotini san‘atga baxsh etgan ustoz san‘atkorlardan biri O‘zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovning ijro yo‘llari va faoliyatini o‘rganmoq va yoshlar orasida targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.*

***Kalit so‘z:** an‘ana, xonanda, ansambl, jo‘rovoz, usul.*

Kuy, qo‘shiq, ijro san‘ati-inson ruhiyatiga tortiq etilgan ilohiy ne‘matdir. San‘atga bo‘lgan qiziqish Kommuna Ismoilova yuragida aynan qachon kurtak ochganini o‘zi ham bilmaydi. Ammo bu ilohiy kayfiyat uning yuragini bolaligidan zabt etganini yillar o‘tib his eta boshladi. Aslida oilada chinakam san‘atkor diyarli bo‘lmagan, ammo ma‘rifatga intilish, shuningdek, san‘atkorlarga hurmat bajo keltirish, tunlari o‘tirib “Oshiq G‘arib va Shaxsanam”, “Kuntug‘mish” dostonlarini o‘qib, she‘riyatidan huzur olgani bor gap, bu esa oilaviy an‘ana edi. Sandal ustida miltillab turgan chiroq atrofida o‘nlab ko‘zlar doston voqealar va she‘riyatning ta‘siridan ilohiy ruhiyat shu‘la sochardi, qahramonlarning murod maqsadlarigaga yetishishidan umidvor bo‘lib, yana keyingi tunda ham dostonlar tinglash uchun Qurbon Ismoilovning yosh xonadonida jam bo‘lardilar. Qurbon Ismoilovning vaqtlari bo‘lmagan kezlarda kelinchagi Bekajon kelin dostonning kelib qolgan joyidan davom ettirardi. Dostonlar bu kelin-kuyovga san‘atning, ijodning ruhini tortiq etgan bo‘lsa, ular esa bu ruhiyatni qo‘ni-qo‘shnilarga yuqtirdi.

Ana shunday yosh oilaning mazmunli hayotlarini Oллоhi taolo farzand bilan siyladi. Yosh jurnalist Qurbon Ismoilov qizalog‘i Kommuna tug‘ilganda uylariga san‘atkorlarni chorlab, bir ajoyib mashvarat o‘tkazganlari oilaning eng baxtiyor kunilaridan biri edi. Qizaloqning o‘nib-o‘shisini istab san‘atkorlar duo qildilar, aqiqa bo‘lgan qizaloq issiqqina o‘rnida maza qilib uxlayotgan bo‘lsa ham, yaxshilarning duosi farishtalarga yetib borganiga shubha qilmaymiz. San‘atkorlarning ijobatini topayotgan duolari balki ota-onaning xotirasidan ham ko‘tarilib ketgandir, biroq uning yozug‘ida farishtalar bitgan va yosh Kommunaning taqdiri azali san‘atkorlikka taqalganini hali bilmasdilar. Biroq xotirada saqlanib qolgani shundaki, oila sohibi Qurbon Ismoilov tomonidan Xiva teatridan chorlangan san‘atkorlarni uyida mehmon qilib, bo‘ronli kunda kolxozning aravasida,

ko'rpalarga o'rab-chirmab, kuzatganlari har zamon tilga olinardi. Chunki qizalog'i tug'ilgandan so'ng, Yangi yilda uylariga san'atkorni atay chorlab, biroz kutilgan farzandi sharafiga mashvarat uyushtirgani bot-bot tilga olingani, jo'ralariga bir maqtangisi kelgani haqiqat edi (1.; 3.).

Bir so'z bilan aytganda o'zbek xalqining sevimli sa'atkori O'zbekiston xalq artisti, betakror ovoz sohibasi Kommuna Ismoilova yuqorida tilga olganimdek, 1927 yilning 15 dekabrda Xorazm viloyati Xiva shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Otasi Qurbon Ismoilov o'qimishli, ziyoli inson bo'lib, Xiva shahridagi sobiq "Xiva kommunasi" gazetasining muharriri bo'lgan. Qizining ismini Kommuna deb qo'yilishida ham o'sha davr siyosatiga daxldor-ramziy ma'no bor. Yosh avlod ma'nosiga u qadar yetmas, ammo sho'ro siyosatida Kommuna so'ziga ehtirom borligini keksa avlodlar yaxshi tushunadilar. Ota o'z qizining gazetachilikda davomchisi bo'lishni istagan bo'lsa, ona esa o'zidek o'qituvchi, muallim bo'lishini orzu qilganlar. Ammo hali o'n besh kunlik chaqaloqni san'atkorlar duo qildilarki, ularning ezgu niyatlarini farishtalar osmonu falak qatiga bitib qo'yanini hali hech kim bilmasdi.

Kommunaning onasi Bekajon Ismoilova esa, o'sha davrdagi xotin-qizlar maktabida o'qigan. Ular to'ng'ich farzandlariga Ullibibi (to'ng'ich farzand, ya'ni hatto bibilarning ulug'i bo'lib yursin degan niyatda) deb nom berishgan. Hali yosh oila bo'lishiga qaramay ota bo'lmish qizini ayolidan qizg'anibmi, o'z ishining davomchisi bo'lishni istabmi, har qalay uning ismini Kommuna deb rasmiylashtiradi. Er-xotinning quvonchi cheksiz bo'lgani bois, Bekajon opa erining bu ishiga e'tiroz bildirmagan bo'lsa-da, uni Ullibibijonim, deb erkalatardi. Aslida rasmiy hujjat gapiradi, Ullibibi ism asta-sekin xotiradan ko'tariladi. Chunki qizi tug'ilib, otaning martabasi oshadi, muharrirlik qilayotgan gazetaning nomi hatto viloyat rahbarlarining tiliga tushadi, qanaqadir siyosiy maqolalar chop etilgani bois, Qurbon Ismoilovga eskiroq bo'lsa-da, mashina tortiq etiladi. Xullasi kalom viloyat rahbarlarining nazariga tushib, ko'p o'tmay 1928 yili Kommunning ota-onasini Toshkentga, hozirgi O'zbekiston Milliy universitetiga o'qishga yuborishadi. Bir yoshli qizalog'i qo'lida, yosh oila hukumat topshirig'i bilan o'qishni davom ettiradi. Kommuna hali juda kichikina bo'lsa ham, o'zi qatnagan bog'cha opalariga yoqib qoladi va unga she'r yodlatib, qo'shiqlar ijro qilishga undaydi. Ziyoli oilada dunyoga kelgan emasmi, u hech tortinmay bolalar o'rtasida chiqishlar qiladi. Ota-onasi universitetni bitirganlaridan so'ng, yurtga qaytadilar, 5 yoshli jajji Kommuna bog'chadagi hayotini aslo unutmaydi, o'shanday bog'cha opalar qo'lida yana o'zini ko'rsatishni istaydi. 1932 yili otasi Qurbon Ismoilov Mang'it tumaniga xokim, onasini shu tumanning xotin-qizlar qo'mitasi raisi etib tayinlanadilar. Shu davrlarda Mang'it tumani Xorazm viloyatiga qarashli edi. Bugungi kunda esa ushbu tuman Qoraqalpoq hududiga kiradi. Kommunaning otasi 1934 yili Xorazm viloyati xokimining muovini etib tayinlanganligi sababli ularning oilasi yana Urganchga ko'chib keladilar. Shu yildan boshlab, Kommuna Urganchdagi o'rta maktabda o'qiy

boshlaydi. U birinchi sinfdalik davridayoq Mang'itda yashagan kezlarda qoraqalpoq ayollarining qo'shiqlarini yod olgani bois davralarda aytib, o'qituvchilarining nazariga tez tushadi. Jajji qizaloqni shahar maktablari o'rtasida o'tadigan ko'rik va tadbirlarga o'qituvchilari olib boradi, uning qo'ng'iroqdek ovozi ko'plarning e'tiborini tortadi.

Endi uni ko'riklarda chiqishlarini uyushtirish uchun munosib libos ham kerak. Shunda o'qituvchilar Kommunnaning onasining yoniga boradi. Ona rahbar ayol, qizi bilan mashg'ul bo'lishga umuman vaqti yo'q. Qolaversa qizlarini san'atkor bo'lishini istamaydi, Kommunaning otasi jurnalist bo'lishni, ona esa qizining o'qituvchi bo'lishini istashlarini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Ammo Kommuna qoraqalpoq va xorazm xalq qo'shiqlarini shirin til bilan ijro qilsa, bolalarbop qo'shiqlarda ham jarangdor ovozi, intilishi unga yo'l ocha boradi. Kommunaning onasi o'z davrida ham atlas ko'ylakda yurishni odat qilgan bo'lsa, qiziga ham o'zbekcha, ko'kragi burmali zamonaviy liboslar tiktirib bergani bois, sahnada chiqishlari ham yanada muvaffaqiyatli chiqa boshlaydi. Yetuk san'atkor Kommuna Ismoilova o'z bolaligini eslar ekan:

“Onam tikib bergan atlas ko'ylakka katta sinf qizlari ham havas bilan qarardi, birgina ushlab ko'ray, deganlari yodimda. Demakki men ancha iqtisodiy barqaror oila farzandi ekanimni his etib, o'zimni yanada baxtiyor sezsam-da, san'atkor bo'lish orzuyimni ota-onamga ro'yi-rost ayta olmasdim. Chunki ota-onam o'z orzularini men orqali ro'yobga chiqarishga intilayotgani dilimni ranjitardi. Ammo ota-onalarimning o'zlari ham ijodga, san'atga oshufta edilar. Ozgina vaqt topsa onam xorazm xalq qo'shiqlarini ijro etsa, otam esa qayerdan topib kelgan bo'lsalar, patefon keltirganlari oilamizga quvonchiga quvonch qo'shdi. “Meni san'atkor bo'lishimni istamasalar ham patefon qo'yib, qo'shiqlar yangraganda raqsga tushishimga e'tiroz bildirmaganlar. Vaqt o'tib otam ishdan toliqib kelgan kezlarda patefonning qulog'ini burardilar, raqsimni maroq bilan tomosha qilardilar...” (1.).

Ha, Qurbon Ismoilov Kommunadagi san'atga bo'lgan ishtiyoqni payqagan sari, qizlarining jurnalist bo'lishi haqidagi orzusi xayolida simobday tarqab borardi. Onaning ham qizidagi san'atga bo'lgan ishtiyoqidan xovagir olsa-da, hali bola-ku, ulg'ayguncha necha marta o'zgaradi. O'qituvchilariga tayinladim, ularnikiga o'xshatib ko'ylak tiktirib berdim, ustozlarning ortidan ergashar, deb o'ziga o'zi dalda berardi.

Kommunaxon ulg'aygan sari maktabda o'zining o'tkir zehni bilan fan o'qituvchilarini ham lol qiladi, har biri o'z fani yuzasidan olimpidalarga tayyorlab, bu borada ham bormagan joyi qolmadi. Ammo uning san'atga shaydoliği ortsa ortdiki, boshqa sohaga bosh burmadi, iste'dodini maktabning kichik sahnalarida namoyish eta bordi. O'rtoqlarining orasida u ajayib san'atkor bo'la oladi degan e'tiroflar yurardi. Kommunaning san'atga bo'lgan mehri nafaqat maktab muhitida balki, teatr tomoshalariga ham tez-tez qatnashishiga yo'l ochdi va yosh bo'lishiga qaramasdan san'atkorlar nazariga tushish imkoni yaratildi, ustozlar bilan tanishishga

yo‘l ochildi. Boisiki, u hali o‘n yoshligidayoq viloyat teatrida bolalar rolini ijro etib, sahnaga chiqishga muyassar bo‘ldi.

Qommunaning san‘atga bo‘lgan ishtiyoqi uni erta ulg‘aytirdi. Ota-ona orzusi boshqa bo‘lsa ham ularning ruhiyatidagi xalq qo‘shiqlari bejiz ketmadi. Boisiki u san‘atkor bo‘lib yetishishida ota-onasidan eshitgan xalq qo‘shiq va dostonlari, qadimiy raqslarning o‘ziga xos jozibasi, sho‘x ohanglari, hamda maktabda musiqadan olgan chuqur taassurotlari katta rol o‘ynaydi. Kommunaning ijro dasturi bolaligida o‘z ota-onasidan o‘rgangan xalq qo‘shiqlari, yalla va laparlardan iborat edi. Maktabda ta‘lim olish bilan birga, ko‘ngil qo‘ygan qo‘shiqlarini kuylab, ustozlaridan san‘at sirlarini o‘rganib, ijrochilik mahorati ham oshirib boradi.

U atigi 14 yoshida katta sahnaga chiqishga jur‘at qildi. 1941 yilda zamon evrilishi-shuni taqoza etdi, boisiki Kommunadek iqtidorlarni sahnaga olib chiqish zarurati tug‘ildi, ya‘ni Ikkinchi jahon urushi boshlanib, hatto san‘atkorlar jang maydoniga otlandilar. Ularning o‘rnini esa yoshlar to‘ldirishi lozim edi. 1942 yilda urush asorati bilan kayfiyati tushgan xalqning ruhini ko‘tarish, kerak onda jang ketayotgan joylarda konsertlar uyushtirish uchun katta tayyorgarliklar boshlandi. Ayni paytda Xorazm teatrida o‘z davrining mashhur san‘atkorlari Ohunjon qiziq, Karim Zokirov, Po‘latjon Rahimov, Zuhur Qobuliy, Tamaraxonim va Nusrat ayalar tomonidan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi bir qator spektakllar tomoshabinga havola etila boshladi. Xalq orasida Farhodday yigitlar el dardini ko‘tarib, janglarda mardlik ko‘rsatishiga undash maqsad qilib qo‘yigan edi, Farhodning tog‘larni kesib suv chiqarishi ibrat namunasi edi. Mardlikka, vatanparvarlikka, dushmanga qarshi kurashga yo‘naltirilgan sahna asarlarini yaratish davr talabiga aylandi.

14 yoshli Kommuna Ismoilovanning ommaviy sahnalarda mahorati oshib, maktabdagi darslari yakunlanishi bilan teatrga qarab chopardi, ota-ona kun bo‘yi davlat xizmatida bo‘lgani bois, qizining bu ishidan xabar ham topmasdi. U jon jahdi bilan spektakldagi ijro etiladigan sahna so‘zlarini tunlari yod olardi. Kommuna Ismoilova o‘sha davrini shushday xotirlaydi:

“O‘zim yosh bo‘lsam ham katta asarning boshidan-oxirigacha yod olib qo‘ygan edim, o‘zim oddiy ko‘makchi rolda yursam ham katta artistlarning obrazidagi so‘zlari yoddan chiqib turgan paytda qo‘limda yelpig‘ich, sekin turtki berib yuborardim. Qo‘limda yelpig‘ich deganim, men shunaqa xizmatkor rolini ijro etganim bois, yelpig‘ichni yuzimga pana qilgancha, aktiyorlarning esidan chiqqan so‘zni aytib, ko‘mak berardim. Azbaroyi san‘atga qiziqqanim bois sahnadagi barcha qo‘shiqlarni o‘zimcha ijro qilardim, qanday bo‘lmasin san‘atkorlik yo‘lini tutishni jon-jahdim bilan axtarardim...” (1.) deydi.

Ana shu spektakllarda u sahnada kichik ko‘rinishlarda obrazlar yarata boshladi, yetuk san‘atkorlarning og‘irini-yengil qilib, katta asarlarda o‘z hissasini qo‘shgan edi. Spektakllarda ishtirok etish, san‘atkorlar davrasida yurish Kommunaning san‘atga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ashula ijrochiligida u

o‘zini yanada erkin seza boshlaydi. Albatta, san’at darg‘alari bilan ijodiy faoliyat olib borishi kelgusida el sevgan xonanda bo‘lishida muxim zamin yaratdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalilov A. Kommuna Ismoilova. – Toshkent., 2009.
2. Ashurova SH. Soz va hayot. – Toshkent., 2013.
3. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – Toshkent., 2005.
4. K. Ismoilovning tarjimai holidan

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ПРЕТВОРЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ ПОЭЗИИ В КАМЕРНО-ВОКАЛЬНОМ ТВОРЧЕСТВЕ МУТАЛЯ БУРХАНОВА

Л.И. АППАЗОВА,

самостоятельный соискатель (PhD)

кафедры истории музыки и критики ГКУз

научный руководитель: **И.Г. Галущенко, к.и., проф.**

***Аннотация.** В статье рассматривается проблема изучения камерно-вокального наследия классика узбекского композиторского творчества Муталья Бурханова. Автор статьи сосредотачивает внимание на творческом подходе композитора к претворению восточной поэзии в жанре романса.*

***Ключевые слова:** камерно-вокальное творчество, романс, восточная поэзия, музыкальные выразительные средства.*

Творчество Муталья Бурханова охватывает широкий круг камерно-вокальных сочинений от песни до романса. Оно поражает разнообразным образным миром, эмоциональными оттенками, драматургическим развитием. Особый интерес представляют собой сочинения, посвященные образам исторического прошлого, восточных ученых и мыслителей в камерно-вокальных жанрах: поэма «Авиценна» (1957), «Ода Алишеру Навои» (1968) на стихи А.Арипова. В этих произведениях образы героев олицетворяют возвышенные идеалы, провозглашают идеи гуманизма и просвещения. Они характеризуют свою эпоху и имеют глубокий духовный смысл. Бурханов для воплощения исторических образов нашел яркие выразительные вокальные мелодии, которые получили развитие и в инструментальном сопровождении.

Муталь Бурханов является основоположником узбекского романса. «Романсы Бурханова относятся к лучшим достижениям узбекской современной вокальной лирики» [1, с. 113]. В своем вокальном творчестве композитор отдавал предпочтение узбекским и таджикским поэтам. К ранним романсам относятся: «Эй, бул бул геря ман кун» («Не плачь соловей») (1935) на стихи Ш.Қосмои, «Бути нозаниман» (1939) на стихи Лахути, «Ишқида» («Таскую по тебе») (1943) на слова Уйгуна, «Дилбари-мо» (1943) на стихи Лахути.